



ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINING QORAQALPOQ TILIDAGI TARJIMALARI O'ZARO ALOQALAR RIVOJIDA

Allambergenov Davronbek Maxsudovich
NDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada A.Oripov she'rlarining qoraqalpoq tilidagi tarjimalar to'plami haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, A.Oripovning ba'zi she'rlari tarjimasidagi til xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Oqar daryo" to'plami, "Kishkene juldiz", "Onamga xat", "Noma'lum odam" va "Havas" she'rlari.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi sermahsuldir. Uning she'rlari yurtimizning har bir hududida sevib o'qiladi. A.Oripovning she'rlari va Amir Temurga bag'ishlab yozilgan "Sohibqiron" dramasi 2021-yili shoir tavalludining 80 yilligi munosabati bilan qoraqalpoq tilida "Oqar daryo" nomi bilan kitobxonlar e'tiboriga taqdim etildi. Taniqli qoraqalpoq shoirlari A.Qayipov, P.Dabilov, P.Mirzabayeva, A.O'tepbergenov, J.O'teniyazov, B.Genjemuratov, N.To'reshova, K.Karimov, X.Dauletnazarov, K.Reymov, M.Nizanov va Sh.Ayapovlar tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan kitob "Bilim" nashriyotida chop etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qardosh xalqlar orasida tarjima asarlarning paydo bo'lishi, adabiy aloqalarning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, xalqlar orasida do'stlik va yaqinlikning mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Zero, "...tarjima do'stlik, o'zaro hamkorlik, taraqqiyot garovi".¹

Qoraqalpog'iston xalq shoiri Kenesboy Karimov tomonidan nashrga tayyorlangan to'plamni kitobxonlar katta qiziqish bilan kutib oldi.

"Oqar daryo" kitobidagi "Kishkene juldiz"² sarlavhasi bilan tarjima qilingan ilk she'r aslida Abdulla Oripovning "Shunday yashar odatda odam"³ she'ri hisoblanadi. Mazkur kitobda bu she'rning nomi yuqoridagi tarzda "Kishkene juldiz" sarlavhasi ostida xato berilgan. She'rning qoraqalpoqcha tarjimasidagi ilk misra sarlavha qilib berilishi kerak edi. Fikrimizcha, bu texnik xatolik yoki anglashilmovchilik natijasida yuzaga kelgan. "Shunday yashar odatda odam" she'ri mazmun jihatidan to'g'ri tarjima qilingan. Misralardagi so'zlarning qoraqalpoqcha tarjimasida aslilatga ham shakl jihatdan ham mazmun jihatdan mos

¹ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari., – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B. 93.

² Арипов А. Ағар даря., - Нокис: Билим, 2021. - Б.6.

³ Орипов А. Йиллар армони., – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.93.



tanlangan, shuningdek, tarjimon ijodiy yondashuvi natijasida yaxshi tarjima qilingan. Ammo, she'rdam kamchiliklar ham yo'q emas. She'rning qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan o'n birinchi qatori quyidagicha berilgan:

“Gureslerge qatarg'a qosin”

Asliyatda esa ushbu misra “Kurashlarning safiga qo'shiling” deya yozilgan. Ko'rinadiki, kurashlarning so'zi qoraqalpoq tiliga kurashlarga shaklida tarjima qilingan. Ya'ni qaratqich kelishigidagi so'z tarjimada jo'nalish kelishigi bilan berilgan. Shu bilan birga, safiga so'zidagi egalik qo'shimchasi tushib qolgan. Bu holat misra ma'nosini biroz bo'lsa ham o'zgartirishiga ta'sir qilgan.

A.Oripovning “Onamga xat” she'ri ham qoraqalpoq tiliga so'zma-so'z asliga muvofiq, tarjimon ijodiy yondashuviga ko'ra tarjima qilingan. Biroq, she'rning oxirgi bandida kichik kamchiliklar mavjud.

*“Ammo hayot o'zi, bilaman,
Solar seni yodimga bot-bot
Ya'ni boshimizni doim ham
Ona bo'lib silamas hayot”⁴.*

Bot-bot so'zi qoraqalpoq tilidagi tarjimada bir-bir shaklida, “ya'ni” aniqlov bog'lovchisi esa ayiruv bog'lovchisiga kiruvchi “yoki” so'zi bilan berilgan.

*“Biraq omir o'zi bilemen
Salar seni yadima bir-bir
Yaki, basimizdi mudami
Ana bolip silamas omir”⁵.*

Ya'ni va yoki so'zlari ma'no jihatdan umuman bir-biridan farq qiladi hamda tarjima matnida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Badiiy tarjimalarda hamma vaqt ham aniqlikka erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ba'zan umumlashtirishga yo'l qo'yiladi.

Shoirning “Noma'lum odam” she'rining birinchi bandi oxiridagi “Shoshib ishga borib sekin qaytardi”⁶ misrasidagi “shoshib” so'ziga tarjimada mos keluvchi so'zni uchratmaymiz.

*U ham boshqalarday kechirib hayot,
Shoshib ishga borib sekin qaytardi.*

Ya'ni, shoshib so'zi tarjima matnida tushib qolganligini ko'rishimiz mumkin:

⁴ Орипов А. Митти юлдуз., – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.4-5.

⁵ Арипов А. Ағар даря., - Нокис: Билим, 2021. - Б.6-7.

⁶ Орипов А. Ҳайрат., – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б.14.



Basqalarday omir keshirip ol ham

Iske barip aste qaytip jur edi

Mazkur she'ning 21-qatoridagi "Loqaydni do'pposla desa ehtimol" jumlasidagi "loqayd" so'zi tarjimada "biyg'am" deya keltirilgan. Ma'noviy jihatdan beg'am va loqayd so'zlari bir-biriga uyg'un bo'lmagan so'zlar hisoblanadi.

Olamning bu mayda g'alvasi nechun?

Bari o'tadigan, bari nokerak.

Yuqorida qayd etilgan misralardagi ravish so'z turkumiga xos nechun so'rog'i tarjimada deymiz so'ziga almashtirilganligi uchun, tabiiyki, misraning savol ma'nosi o'z kuchini yo'qotgan. Ammo, keyingi qatordagi nokerak so'zini nimaga kerak ma'nosida ifodalash orqali yuqoridagi tushirilgan so'roq mazmunini tiklashga qisman bo'lsa ham erishilgan.

Dunyanin' bul mayda g'avg'asi deymiz

Bari otkinshidur, bari ne kerek?

Shunga qaramay, nokerak so'zi qoraqalpoq tiliga to'g'ri tarjima qilinmagan. Kerak so'ziga no- prefiksi qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan so'z asliy matnda keraksiz ma'nosida ishlatilgan. Lekin tarjimada yuqorida ta'kidlanganidek, keraksiz ma'nosidagi so'z so'roq ma'nosida ifodalangan. Tarjima jarayonida mayda kamchiliklar bo'lishi tabiiy jarayon. Lekin she'ning umumiy mazmun-mohiyati tarjimon tomonidan ancha yaxshi ochib berilgan. "Noma'lum odam" she'rining qoraqalpoqcha tarjimasini bemalol ifodali va ravon o'qishimiz mumkin. "Tarjima qilingan asarni o'qiganda kitobxon uning tarjima ekanligini unutsin, shundagina tarjimon o'z oldiga qo'yilgan maqsadni, tarjima qilishdek mas'uliyatli vazifani bajargan bo'ladi"⁷, - degan edi bu haqda H.Mavlonova.

A.Oripov qalamiga mansub "Havas" she'ridagi ayrim so'zlar o'zgarishga uchragan. Lekin she'ning umumiy mazmun-mohiyatga ta'sir ko'rsatmagan. Shuningdek, tarjima matnining ohangdorligini oshirgan.

Ko'kda yulduz emas, u sirli qo'shiq

Intizor yigitning chashmiga singgan⁸.

She'ning ikkinchi bandidagi "sirli" so'zining o'rniga tarjimada "nurli" so'zidan foydalanilgan.:

Ko'kte juldiz emas, ol nurli qosiq,

⁷ Mavlonova H. A.M.Gorkiy asarlari o'zbek tilida. Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami), 40-bet.

⁸ Орипов А. Биринчи мухаббатим., – Тошкент: О'ZBEKISTON, 2006. – В. 55.



Intizar jigittin' kewline singen.

She'riy nutq tarjimaga ko'chganda jaranglab chiqishi uchun so'zma-so'z emas, biroz ijodiy yondashgan holda tarjima qilish ba'zan yaxshi samara beradi. "Badiiy tarjimaning antinomiylaridan biri shundaki, tarjimon matnga qanchalik yopishib olsa, uni so'zma-so'z tarjima qilishga urinsa, asliyatdan shunchalik uzoqlashadi, aksincha, matndan bir qadar chekinib, unga ijodiy yondashsa muallifning so'zini emas, balki botiniy mazmunini aks ettirishga intilsa, asliyatga shunchalik yaqinlashadi, go'zal va mukammal tarjima yaratadi"⁹

A.Oripov she'rlarining yaqin qardosh til bo'lgan qoraqalpoq tilidagi tarjimalarida til jihatdan ba'zi joylarida kamchiliklar bo'lishiga qaramay, badiiy tomonlama ancha yaxshi yozilgan. Xulosa qilib aytganda, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bir tilda ko'rinib turgan narsa ikkinchi tilga o'tganida o'zgarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari., – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish., 1978
3. Арипов А. Афар даря., - Нокис: Билим, 2021.
4. Орипов А. Митти юлдуз., – Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Орипов А. Йиллар армони., – Тошкент. 1987.
6. Орипов А. Биринчи мухаббатим., – Тошкент: O'ZBEKISTON, 2006.
7. Орипов А. Хайрат., – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.

⁹ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari., – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B. 96.